

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI

OTA-ONALARNING BOLAGA MUNOSABATIDA IJTIMOY FObIYANI Keltirib CHIQRUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR

Odilova Yoqutxon Islomovna,

Navoiy davlat pedagogika instituti psixologiya fani o'qituvchisi

<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.2.2.062>

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy oila o'z farzandlarini nafaqat intellektual jihatdan yetuk, jismoniy barkamol shaxs bo'lib yetishishini xohlash bilan birga, ularning psixologik jihatdan ham, baqaror ruhda o'sishini istashlari, ushbu jarayonda noto'g'ri munosabatga bo'lishlari bolalarda ijtimoiy fobiyaning keltirib chiqarishi mumkinligi to'g'risidagi muammolar, psixologik omillar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: zamonaviy oila, ota-onalar, intellektual, jismoniy barkamol shaxs, psixologik omillar, ijtimoiy fobiya.

Hozirgi texnologiya o'zgarishlar sharoiti va ijtimoiy-siyosiy rivojlanishlar nafaqat jamiyat hayotini balki, uning bir bo'g'ini bo'lmish oilalardagi ijtimoiy-psixologik muhitga katta o'zgarishlar olib kelmoqda. Ayniqsa, ota-ona o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, ularning bola tarbiyasidagi e'tiborsizliklari, oilaviy munosabatlarda empatik munosabat va mas'uliyat hissining yo'qligi, bolalarga nisbatan zo'ravonlik holati, shavqatsiz tarbiya shakli kabilari, bolalarda "ijtimoiy fobiya" rivojlanishiga sabab bo'lmoqda. Garchi, fobiya hodisasi klinik tibbiy psixologik va klinik xarakterdagi holat bo'lsada, biroq uni faqatgina tibbiy, tibbiy psixologik jihatdan o'rganish, zamonaviy psixologiya uchun yetarli emas. Shuni alohida ta'kidlash joizki, hozirga qadar jahon psixologiyasi tadqiqotlarida fobiya ko'proq, tibbiy psixologik mazmunda keng tadqiq etilgan. Ya'ni muammoning ijtimoiy-psixologik, psixodagnostik jihatlari deyarli chetda qolgan. Qolaversa, mahalliy psixologiyada fobiya holati ko'proq, umumpsixologik jihatdan, "qo'rquv" fenomeni negizida ko'rib chiqilgan.

Hozirgi yangilanib borayotgan bugungi jamiyatda, har bir ota-onalar farzandlarining rivojlanishidan va ishtimoiylashuvidan ko'proq xavotiga tushmoqda. Mazkur ma'lumotni ota-onalar bilan olib borilgan suhbatlar, internet tarmog'ida o'tkazilgan onlayn suhbatlar, olib borilgan empirik tadqiqotlar natijalari tasdiqlamoqda. Qolaversa, zamonaviy psixolog mutaxassislar aynan oilaviy munosabatlar orqali kelib chiquvchi bolalardagi "ijtimoiy fobiya"ning paydo bo'lish sababiga, noto'g'ri tarbiya, oiladagi nosog'lom muhit, ichkilikbozlik, kutilmagan vaziyatlar, ayriliq, o'lim va bolalarga nisbatan bo'layotgan bulling munosabatlar (haqorat va qattiq tazyiq o'tkazish) kabilarni omil sifatida e'tirof etishmoqda.

Yosh xususiyatlari jihatdan qaralganda, bolalar zaif ijtimoiy guruh bo'lib, ular o'z yaqinlari va ota-onalarining yordami va g'amxo'rlikiga muhtojdir. Oilada mehr va g'amxo'rlik bilan tarbiyalangan bolalar baxtlidir. Afsuski, hozirgi global zamonaviy jamiyatda bolalarning kattalar tomonidan zo'ravonlik qurboni bo'lish tendensiyasi yanada kuchaymoqda. Shuning uchun, salbiy oilaviy muhitda va oilaviy munosabatlarda shakllanuvchi ijtimoiy fobiya hodisasi 21 asrdagi jiddiy muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu masalada keng ko'lamli izlanishlar olib borayotgan Dj.Biik o'z asarlarida bolalarga nisbatan bo'layotgan oilaviy zo'ravonlikni – bolaning jismoniy yoki aqliy rivojlanishiga zarar yetkazuvchi, ota-onalarning qasddan qilingan harakatsizligi deb ta'riflaydi. A.L.Juravleva esa, boshqa olimlardan farqli o'laroq, o'z izlanishlarida farzandlarga nisbatan bo'ladigan hamda ijtimoiy fobiya uchun sabab bo'luvchi, zo'ravonlikning quyidagi turlarini ajratib o'tadi:

1. Jismoniy zo'ravonlik – (sog'likka qasddan, tasodifiy zarar yetkazish, shu jumladan: kaltaklash, urish, bo'g'ilish, tishlash va hokazo, bu holatlar tanadagi ko'karishlar, qizarishlar, yaralar, sinishlarga olib kelishi mumkin). Har yili dnyo bo'yicha 80 000 dan ortiq bolalar o'ylaridan qochib ketadi. Ya'ni jismoniy zo'ravonlikdan xalos bo'lish uchun. Bundan tashqari, oilaviy munosabatlar tufayli halok bo'lganlarning umumiy sonining 38 foizi, o'zini himoya qila olmaydigan bolalar tashkil etadi;

2. Psixologik zo'ravonlik – (ota-onalarning bolaga g'amxo'rlik qilish, hurmat va e'tibor berishdan zuoqlashishidir. Shuningdek, bunday munosabatlar ko'pincha, masxara qilish, kamsitish, haqorat qilish kabilarda o'z aksini topadi);

3. E'tiborsizlik (ota-onalarning bolaga to'g'ri g'amxo'rlik qilish va asosiy ehtiyojlarini qondirishni ta'minlashga qodir emasligi: kiyim-kechak, oziq - ovqat, uy-joy, yashash sharoitlari, ta'lim va hokazo) (O.A.Sagalakova 2005);

4. Jinsiy zo'ravonlik (18 yoshgacha bo'lgan boladan jinsiy qoniqish olish uchun foydalanish, ya'ni bolalarni yalang'och videoga olish, ularga jinsiy a'zolarni ko'rsatish, jinsiy aloqaga majburlash). Statistika ma'lumotlariga ko'ra, 45-55% hollatlarda, ota-onalar o'z farzandlarini zo'rlovchilari bo'lib chiqadilar. Kuzatuvchi mutaxassis G.Tedjfelning aytishicha, bolalar xulqida ijtimoiy fobiyaning yuzaga keltiruvchi oilaviy

zo‘ravonliklarning sabablariga quyidagilar kiritiladi:

– Ota-onaning o‘z farzandlariga bo‘lgan shafqatsiz tarbiyasi (o‘z bolasini zo‘ravonlikka duchor qilgan ota-onalarning aksariyati, o‘zlari ham xuddi shu sharoitda katta bo‘lgan va tarbiyalangan, ularning nazaricha “bizni qattiq urishgan, “men ham qattiq urishim kerak” deb da‘vo qiladilar;

– Ota-onalarning ta‘lim darajasi (ta‘lim darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, oilada zo‘ravonlik holatlari xavfi shunchalik past bo‘ladi) (Tedjfel G. 2007);

– Ota-onaning ajrashishi (ajrashgandan so‘ng, bola ota-onalardan biri bilan yashaydi, o‘gay ota yoki o‘gay onasi boshqa bir kishi bilan qayta turmush qurganda, ayrim holatlarda zo‘ravonlikka olib keladigan nizolar kelib chiqadi);

– Ota-onalarning alkogolizmga ruju quyishi va giyohvandlikka tobe bo‘lib qolishi (alkogolizm va giyohvandlik zo‘ravonlik va qarovsizlikka olib keladigan asosiy omillardan biridir, ayrim tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, deyarli barcha bolalar jinsiy zo‘ravonlikka ota-onalardan birining giyohvandlikka ruju quyishi holatlarida duch kelishadilar) (E.G. Eydemiller 2011);

– Ota-onalar yoki yaqinlar o‘rtasidagi munosabatlar, ya‘ni qarindoshlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlardagi buzilishlar yoki dushmanlik hissi, o‘zaro kelishmovchiliklar va boshqalar. Demak, ota-onalar tomonidan amalga oshiriladigan zo‘ravonliklarning turi ham, keyinchalik bolalarda ijtimoiy fobiyaning paydo bo‘lishiga yoki yaqin munosabatlardan uzoqlashishga sabab bo‘lar ekan. Shaxslararo munosabatlar yondashuvi vakillari nuqtai nazaridan tahlil etilganda, “ijtimoiy fobiya” birinchi navbatda, shaxslararo munosabatlarning buzilishi oqibatida yuzaga kelishi ta‘kidlanadi. D.V.Yastrebov yozishicha, ushbu buzilishning asosiy sabablaridan biri sifatida, boshqa odamlar bilan aloqa qilishda yuzaga keladigan to‘siqlar, guruhiiy faoliyatda shaxsiy va kasbiy munosabatlarni saqlab qololmaslik va boshqalardir. Shaxslararo yaxshi ijtimoiy munosabatlar ko‘proq, oiladagi ijobiy muhit va psixologik farovonlik bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu bois ham, shaxslararo munosabatlar nazariyasining asosini, ko‘proq o‘z-o‘zini takomillashtiruvchi “shaxslararo sikl” jarayoni tashkil etadi. Mazkur yondashuvga ko‘ra, biz o‘tgan tajribalarimizda duch kelganimiz kabi, boshqa odamlardan ham xuddi shunday munosabatni kutamiz va o‘tgan voqe‘alar natijasida o‘rgangan xatti-harakatlarimizni yana takrorlaymiz. Bizning xatti-harakatlarimiz boshqalarga o‘z taxminlarimizni tasdiqlaydigan tarzda ta‘sir qiladi. Xorij olimi L.E.Adlenning aytishicha, boshqalardan ijobiy javob kutgan odamlar, ijobiy javoblarni keltirib chiqaradigan ijtimoiy xatti-harakatlarni tanlaydilar, salbiy javobni kutgan odamlar esa, avvalroq neytral muhitdan salbiy javob ehtimolini oshiradigan himoya strategiyalari bilan ko‘proq shug‘ullanadilar. Xuddi shu mazmundagi tadqiqotlar ijtimoiy fobiyaning shaxslararo munosabatlarga qanday ta‘sir qilishini va aksincha, ijtimoiy fobiyaning qanday rivojlanib borishini ishonchli tarzda tasdiqlay oladi.

Ijtimoiy fobiya yuqoridagilardan farqli ravishda, o‘zaro munosabatlardagi psixologik to‘siqni, ya‘ni ota-ona va bola o‘rtasidagi barqaror munosabatlarni izdan chiqaruvchi, salbiy munosabatini shakllantiruvchi, tashvishli holatini keltirib chiqaruvchi hodisa ham sanaladi. B.D.Pariginning fikricha, ijtimoiy fobiya bolalardagi so‘z erkinligi va o‘zini o‘zi namoyon etishni cheklaydi, bolaning muloqot qilish imkoniyatini to‘siq qo‘yadi oxir-oqibat esa, munosabatlar jarayonida muloqot usullarini individuallashtirishga, stereotiplarga va infantilizatsiyaga olib keladi. Shuning uchun ham, ko‘pchilik bolalar kommunikativ vaziyatlarni stressli, qo‘rqinchli va keskin deb bilishadi, chunki bolalar muloqot vaziyatlarini hal qilish jarayonida, turli xil qiyinchiliklarga duch kelishadilar.

Mohiyatan, ijtimoiy fobiya olib keluvchi muloqotdagi qiyinchiliklar - bu aloqa sub‘ektining ichki muvozanatini buzadigan va shaxslararo munosabatlarni murakkablashtiradigan turli kuch va jiddiylikdagi ob‘ektiv yoki sub‘ektiv tajribali aloqa to‘siqlaridir. Ularni bartaraf etish, yangicha ichki harakatlarni talab etadi. Ijtimoiy fobiya sabab bo‘luvchi “kommunikativ qiyinchiliklar”ni to‘rtta guruhga bo‘lish mumkin: asosiy, mazmunli, instrumental, refleksiv. Boshqa bir mutaxassis L.E.Brumerining aytishicha, ota -ona va farzandlar o‘rtasidagi munosabatlardagi o‘zaro kelishmovchiliklar quyidagi sabablar bilan ham tavsiflanadi:

Empatiyaning yo‘qligi yoki e‘tibor berishdagi uzilishlar;

Egotsentrizm bilan bog‘liq vaziyatlar;

O‘z farzadlariga bo‘lgan ijobiy munosabatning yo‘qligi;

– Oilada ekzestensial aloqalarning yetishmasligi, yashashdan mazmun va mohiyatning yo‘qligi. Munosabatlardagi qiyinchiliklarga kommunikativ bilimlarning yetishmasligi, og‘zaki, og‘zaki bo‘lmagan ekstralingvistik qiyinchiliklar, refleksiv muloqot qiyinchiliklari ya‘ni o‘z-o‘zini tahlil qilish, o‘zini o‘zi kuzatish va o‘z-o‘zini rivojlantirishdagi qiyinchiliklar shular jumlasidandir. Ta‘kid joizki, bolalarda “Ijtimoiy fobiya” shakllanishi masalalarining oilaviy muhit bilan aloqadorligini tekshirish ishlari tadqiqotchilardan Yu.A.Fisenko, I.N.Garbutzova, V.V.Lebedenskiy, S.N.Blyumenfeld, I. S.Aleksandrenko, G. D. Gerorgis, I.M. Balinskiy, V.N.Myasnikov, Ye.K. Yakovleva, R.A. Zachepeskiylarning ishlarida yaqqol ko‘rish mumkin. Aynan ushbu mualliflar guruhining xulosalariga ko‘ra, oila bolaning barqamol va ijtimoiy benuqson rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi va atrofdagi voqe‘aliklar bilan o‘zaro aloqada kechadi. Shuningdek, oila, eng yaqin ijtimoiy muhit sifatida, bolaning hissiy qo‘llab-quvvatlanishini, yaqin qabul qilinishini, hurmatga va himoyaga bo‘lgan

ehtiyojini qondiradigan ijtimoiy muhitdir. Bunda, ota-onalarning o'zaro ta'siri va hissiy munosabati, bolaning ruhiy salomatligiga va hissiy sohasiga ta'sir qiluvchi asosiy omillardan biri sanaladi. L.B.Shnayderga ko'ra, ota-ona va bolalar o'rtasidagi munosabatlar va ijtimoiy fobiyaning paydo bo'lish shart-sharoitlari holatida tarbiya uslublari ham farqlanadi:

1. Ota-onaning tarbiyadagi avtoritar uslubi bu – bolaga nisbatan sovuq munosabatda bo'lish va yuqori darajadagi nazoratga asosladi. Ota-onalar farzandlaridan yopiq munosabatda bo'lishadi ya'ni qat'iy talab va qoidalarni qo'yadilar, ularning fikrini hech qachon hisobga olmaydilar;

2. Ota-onalarning tarbiya va nazoratdagi befarq uslubi – bunda o'z bolalarining xatti-harakatlari ustidan nazoratning pastligi va munosabatlarda iliqlikning yo'qligi ajratiladi (Dj.Braun 2001) (O.Ye.Smirnova 2007);

3. Liberal uslub – bola bilan iliq munosabatlar va nazoratning past darajasi bilan xarakterlanadi;

4. Despotik uslubi (Hukmronlik, qattiq intizomga va bo'ysunishga asoslangan munosabat) bu – so'zsiz bo'ysunishga, ko'rsatmalarga, buyruqlarga va qat'iy jazolarga asoslangan jarayondir. Mazkur tasniflashga muvofiq, agar ota-onalarning o'zlari avtoritar ruhda tarbiyalangan bo'lsalar, ular ham o'z farzandlariga juda qattiq munosabatda bo'lishar ekan. Aslida, har bir ota-ona o'z farzandlariga mehribon va xayrixoh, samimiy munosabatda bo'lishi lozim sanaladi. Liberal, disput va befarq usular ham xuddi shunday sotsial-psixologik sifatlar bilan tavsiflanib, ularni tahlil etish ota-onalarda shakllangan qator ijtimoiy-psixologik sifatlarining o'ziga xosliklariga ham, uzviy bog'liq hisoblanadi. Ayrim tadqiqotchilarning aytishicha, ota-onalarning o'z farzandlariga nisbatan bo'ladigan haddan ortiq shavqatsiz munosabati, o'ziga xos xulq-atvor tiplarini keltirib chiqarishi ta'kidlagan. Misol uchun, A.B.Xolmogorovning so'zlariga ko'ra, bolalarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'lish, o'z-o'zini qoniqmaslik, beqaror xulq-atvor va muloqotga tez kirisha olmaslik, haddan tashqari jur'atsizlik, qaram xulq-atvor, sovuqqonlik va befarqlik, yumshoq tip va hokazo.

D.Vidra o'zining ilmiy asarlarida yozishicha, oilada bolalarga nisbatan adolatsiz munosabatda bo'lish, nafaqat ijtimoiy fobiyaning kelib chiqishiga balki, ularda xavotirli, og'riqli hisslarning rivojlanishiga sabab bo'ladi deb ta'kidlab o'tadi. Shuningdek, haddan tashqari qo'yiladigan talablar, bolalarda aqliy qobiliyatining susayishigaamda asossiz qo'rquvning paydo bo'lishiga ham sabab bo'ladi. Olimlardan D.Tannen, Ye.K.Yakovleva, R.A.Zachepeskiy, L.M. Faerbergning ta'kidlashicha, qat'iy, ammo qarama-qarshi talab va taqiqlar sharoitida tarbiyalanayotgan bolalar nevroz, qo'rquv, ijtimoiy qoloq, o'zini tuta olmaslik, isterik xarakter kabi xususiyatlarga ega bo'la boradi. Tibbiy psixologik mazmunga ko'ra, bolalarga chidab bo'lmas talablar qo'yish, oxir-oqibat nevrasteniya (zaif asab tizimi) keltirib chiqarishi mumkinligi aytiladi. Darhaqiqat, oiladagi muammolar, u yoki bu darajada, deyarli har doim bolaning ruhiy holati va uning rivojlanishiga salbiy ta'sir etadi, bu nafaqat psixologiya, balki tibbiyot vakillari tomonidan ham keng ta'kidlangan, masalan taniqli psixiatr I.Dobriyakov ushbu masalada shunday deydi: "Nosog'lom muhitdagi oilalardagi maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik o'zini o'zi anglashida mehr-muhabbatning yetishmasligi, oilada iliq munosabatning yo'qligi, ishonchli munosabatning yetishmasligi, hissiy bog'liqlikning kamligi kabilar omil sifatida e'tirof e'tiladi. Ya'ni qayd etilgan omillarning barchasi, o'zaro aloqalardagi keskinlik, ijtimoiy qo'rquv, tashvish, stresslarga sabab bo'lishi mumkinligi ta'kidlanadi. Pedagogik-psixologik mazmundagi ayrim tadqiqotlarda bolalar xulqida paydo bo'luvchi ijtimoiy fobiyalar va ularning sababablari, ijtimoiy fobiyaning bartaraf etishning psixoprofilaktik chora-tadbirlari rejasiga quyidagilar kiritiladi:

1. Ota-onalar uchun psixologik tarbiya maslahatini amalga oshirish. Bunday ishning asosiy vazifasi shundaki, har bir ota-onalarda ijtimoiy fobiyaning oldini olish tajribasi va uni yengishga qaratilgan malakalarni shakllantirish.

2. Ota-onalar uchun pedagogik tarbiyasi maslahati. Bunda ularga qo'rquvning barqaror shaxsiy xususiyat sifatida bolaning rivojlanishiga, uning muvaffaqiyatiga va kelajagiga ta'sirini tushuntirish kabilarga e'tibor qaratiladi;

3. Ota-onalarga bolalarda ortib borayotgan tashvish va qo'rquvni bartaraf etishning o'ziga xos usullarini o'rgatish (B.Xillenger 2001);

4. Bolalar bilan bevosita ishlash, ularda o'ziga bo'lgan ishonchni shakllantirish, o'z muvaffaqiyatning mezonlarini, qiyin vaziyatlardan qanday chiqib ketish imkoniyatlarini, muvaffaqiyatsizlik holatlarida o'zini tutish qobiliyati kabilarni rivojlantirish maqsad qilinadi (M.A.Bebchuk 2012);

5. Yangi ko'nikma va malakalarini real hayotga tatbiq etish qobilyaitlarini shakllantirish va ularni turli mazmunda muhokama qilish, o'quv vaziyatidan tashqari psixologning yordami kabilar shular jumlasidandir. Demak, yuqori da qayd etilgan tizimli chora-tadbirlardan asosiy maqsad shuki, ijtimoiy fobiyadan aziyat chekayotgan bolalarda o'ziga bo'lgan ishonchni rivojlantirish va mustahkamlash, turli vaziyatlarda hissiy taranglikni bartaraf eta olish, o'z qobiliyati va iste'dodini aniq namoyon eta olish, his-tuyg'ularini boshqalar oldida ham erkin ifoda eta bilish, bolaning o'z qo'rquvini yengishda psixologdan yordam berish va ularni har qanday murakkab sharoitlarda ham, qo'llab-quvvatlashni asosiy mezon sifatida qo'llay olishdir. Shuni alohida aytib o'tish lozimki, aksariyat holatlarda bolalar shaxsida paydo bo'luvchi "ijtimoiy fobiya" boshqa bir sabablarga ko'ra ham namoyon bo'lish xarakteriga egadir. Masalan, jamiyatda kechayotgan

shiddatli urbanizatsiya jarayoni ham, insonlarni tabiiy yashash muhitidan ancha uzoqlashishiga, shaxslararo munosabatlarning ko‘rinishining tobora murakkablashishiga, hayot sur‘atining kuchayishiga olib kelmoqda. Qoidaga muvofiq, yangi tug‘ilgan chaqaloqlarning aksariyati katta ob‘ektga to‘satdan yaqinlashganda yoki baland tovushlar paydo bo‘lganda, instinktiv himoya mexanizmlarini namoyon qiladilar. Biroq, bu reaksiya ularda tezda yo‘qoladi. Chunki, qo‘rquv bola olti oylik bo‘lganidan boshlab namoyon bo‘la boradi. Bu yoshda chaqaloqlar hattoki, oz muddat onasidan ajralishi natijasida qattiq xavotirini boshdan kechirishadi. Tadqiqotchi T.B.Bashaevaning so‘zlariga ko‘ra, yetti oylikda bola allaqachon onaning uzoq vaqt yo‘qligidan qattiq tashvishlanishni boshdan kechiradi. Ushbu tashvish hissi – qo‘rquvga yaqin bo‘lgan jarayon sanalib, u chaqaloqning atrof -muhitga bo‘lgan ongli reaksiyasi hisoblanadi. Ammo, o‘smirlik davrida uchun, fobiyalar kamroq xarakterlidir. Ko‘pincha, o‘smirlik yoshida noaniq o‘zgarishlar bilan bog‘liq umumiy tashvish va bezovtalik holati qayd etiladi. E.Vrononing yozishicha, fobiyaning barcha sabablarini to‘rt toifaga bo‘lish mumkin:

- Intensivlik;
- Ta‘sir etuvchi qo‘zg‘atuvchining yangiligi;
- Evolyusion rivojlangan xavf signallari (G.N.Grishina 1994);
- Ijtimoiy ta‘sirida yuzaga keladigan sabablar. Shu bois ham, og‘riq va baland shovqin haddan tashqari,

kuchli ogohlantirishlarga misol bo‘lib, u notanish yuzlar yoki narsalar bilan duch kelganda namoyon bo‘ladi. Shunday tadqiqotlar mavjudki, unda bolalardagi fobiyalarni oldini olishning asosiy vositasi sifatida e‘tibor, g‘amxo‘rlik kabilar tan olinadi. Xuddi shu masalada, xorij olimi J.Graystning aytishicha, bolalikdagi qo‘rquv bilan kurashishning qaysi usulini tanlashimizdan qat‘i-nazar, bolaning shikoyatlarini e‘tiborsiz qoldirmaslik lozim. Faqatgina shu yo‘l bilan biz ijtimoiylashgan, o‘ziga ishongan insonlarni tarbiyalay olamiz ded ta‘kidlab o‘tadi. Muallif bu yerda ota-onalarda shakllangan empatik qobiliyat darajasiga urg‘u bermoqda. Ba‘zida bolalar kattalar uchun arzimas narsa kabi ko‘rinishdan ham tashvish va xavotirni boshdan kechiradi. Psixologik mazmunga ko‘ra, bolalar qo‘rquvini hech qachon masxara sifatida qabul qilib bo‘lmaydi, balki uni oldini olishga qarshi kurashish lozim. Ota-onalar va bolalar o‘rtasidagi munosabatlar muammosi ancha murakkab va paradoksaldir. Ushbu muammoning muhimligiga qaramay, ota-onalar odatda buni sezmaydilar, chunki ular buning uchun zarur bo‘lgan, psixologik va pedagogik ma‘lumotlarga ega emasdilar.

Yuqoridagi holatlardan farqli o‘laroq, “Sog‘lom” oilalarda ota-onalar va bolalar tabiiy kundaliklar, vazifalar orqali o‘zaro munosabatlarga kirishadilar. Hatto, ular o‘rtasida shunday yaqin aloqalar mavjudki, uning natijasida “ma‘naviy birlik” paydo bo‘ladi. Ya‘ni hayotiy intilishlar va o‘ziga xos harakatlar muvofiqlashadi. Ushbu turkumdagi munosabatlarning tabiiy asosini esa, oilaviy rishtalar, empatik munosabatga qaratilgavn tuyg‘ular tashkil etadi. A.K.Kerneyning yozishicha, ko‘pgina ota-onalar o‘zlarining tarbiyasidagi kamchiliklarni juda yaxshi bilishadi, lekin ular o‘z muammolarini hal qilish uchun asosiy psixologik savodxonlikka ega emaslar. Inson butun umri davomida oila muhiti, uning holati va istiqbollari sezgir bo‘ladi. Oilada bolaning o‘ziga va uning atrofidagi odamlarga munosabati shakllanadi. Bu yerda shaxsning birlamchi ijtimoiylashuvi sodir bo‘ladi, birinchi ijtimoiy rollar o‘zlashtiriladi va hayotning asosiy qadriyatlariga qadam qo‘yiladi. Tadqiqotchi V.S.Zaslujenyukning aytishicha, ota-onalar o‘z farzandlariga tabiiy ravishda ta‘sir qiladi:

- Ota-onalarning xatti-harakatlariga taqlid qilish – bu ichkilashtirish mexanizmlari sanaladi. Oilaviy ta‘limning o‘ziga xos katalizatori - bu bog‘liq his-tuyg‘ular. Oilaviy ta‘lim individualdir, shuning uchun uni anonim ta‘limning hech qanday surrogatlari bilan almashtirib bo‘lmaydi. Uning yo‘qligi yoki nuqsonlari insonning keyingi hayotida qoplanishi deyarli mumkin emas. Bundan tashqari, ta‘lim mikro jamiyatning asosiy ustuni, ijtimoiy mikro muhitning bir qismi bo‘lib, u yo‘naltirilgan va yo‘naltirilmagan tarbiyaviy ta‘sirni amalga oshiradi va bolaning shaxsiyatini shakllantirishga keng ta‘sir qiladi.

O.V.Lishinning yozishicha, psixologik muhit, shaxslararo munosabatlar jarayoni bilan chambarchas bog‘liq sanalib, unda bolalarga munosabatning tabiati, ularning qiziqishlari, ehtiyojlari, ota-onalarning individual tipologik xususiyatlari, ota-onalarning psixologik, pedagogik va umumiy madaniyati darajasi, oilaviy turmush tarzi kabilar bilan uzviy aloqadordir. O.S. Sermyaganing fikricha, shaxsning shakllanishida boshqa barcha omillarni belgilab beruvchi va vositachilik qiluvchi oiladagi axloqiy-psixologik iqlim ham katta ahamiyatga egadir. O‘z navbatida, oilaviy mikroiklimning o‘zi ham, oilaning tabiatiga va birinchi navbatda, nikoh va bola-ota-ona munosabatlariga bog‘liq sanaladi. E. Yu. Brel bolalik davridagi fobiyalarning shakllanishiga ta‘sir qiluvchi va unda ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlashga qaratilgan maxsus tadqiqot o‘tkazib, unda bolalar shaxsida rivojlanuvchi ijtimoiy fobiyaning sabablarni aniqlashga harakat qiladi. Ya‘ni bunga asosiy sabab shuki, ota-onalardan birining o‘z ishidan noroziligi, moddiy ahvoli va turmush sharoiti nolishi va hokazo. Tadqiqotchi I.P.Shaxovanning xulosalariga ko‘ra, ota-ona va bola munosabatlariga oilaning turi, kattalar tomonidan tutilgan pozitsiya, munosabatlar uslublari va oilada bolaga yuklagan vazifalar ham keng ta‘sir qiladi. Mualliflarning yozishicha, bola ota-ona munosabatlari turi ta‘sirida kamol topadi. Umumiy ma‘noda qaralganda, psixologik adabiyotlarda qo‘rquv shartli ravishda vaziyatli va shaxsiyga bo‘linadi:

- Vaziyat qo‘rquvi kattalar yoki bola uchun g‘ayrioddiy, o‘ta xavfli yoki hayratlanarli vaziyatda, masalan,

it hujumi paytida paydo bo'ladi. Ko'pincha, boshqalarning vahimali so'zlari va psixologik kechinish ta'sirida paydo bo'ladi.

– Boshqa bir insonlarning munosabati, hayotiy nizolar va muvaffaqiyatsizliklar. Shaxs tomonidan aniqlangan qo'rquv insonning xarakteri bilan oldindan belgilanadi, masalan, uning shubhaliligi kuchaygan va yangi muhitda yoki notanish odamlar bilan aloqalar paytida, u o'zini namoyon qilishi mumkin. Vaziyatli va shaxsiy aniqlangan qo'rquvlar ko'pincha, aralashib ketadi va bir-birini to'ldiradi. X.Djaynotning ta'kidicha, qo'rquv haqiqiy va xayoliydir ya'ni o'tkir va surunkali. Haqiqiy va o'tkir qo'rquvlar vaziyatga qarab, xayoliy va surunkali qo'rquvlar esa shaxsning xususiyatlariga qarab namoyon bo'ladi. Darhaqiqat, qo'rquv kuchli ifodalangan hissiyotdir, u odatda, tabiiy yoki yoshga bog'liq va patologik xususiyatlarni farqlay bilish kerak kerak. Odatda qo'rquv qisqa muddatli, qayta tiklanadigan, ma'lum bir yoshda yo'q bo'ladigan yo'qoladi xulq -atvor shaklidir. Aksariyat vaziyatlarda, ota-onalarning bolaga bo'lgan munosabati uning ehtiyoj va motivatsion tizimini, dunyoga va o'ziga bo'lgan ijobiy qarashini ham shakllantirishi mumkin ekan.

Yuqorida tahlil etilgan ilmiy qarashlardan kelib chiqib, ushbu paragraf yuzasidan quyidagilarni xulosa sifatida berish mumkin:

1.Oila bola shaxsi shakllanishi uchun muhim sanalgan ijtimoiy muhit hisoblanib, undagi barqaror muhit bolaning kommunikativ, ijtimoiylashuv sohalariga keng ta'sir etib, uning shaxslararo munosabatlarda imkoniyati, emotsional intellekti, empatik qobiliyatining darajasi, ijtimoiy faolligi kabilar bilan ham xarakterlanar ekan.

2.Ota-onalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlarda, sotsial fobiyaning bartaraf etuvchi omillar sifatida, o'zaro bir-birini tushunish, mehr-muhabbatga to'la munosabat, jismoniy jazoning kamligi bundan tashqari, bolada rivojlanayotgan hissiy tajriba, oiladagi disfunktsional munosabatlarning yo'qligi kabi, ijobiy ijtimoiy -psixologik omillar tashkil etar ekan.

3. Ijtimoiy fobiyaning boshdan kechiruvchi bolalarda o'z his-tuyg'ularini boshqarish va boshqalarga hissiy ta'sir o'tkazish qobiliyati keskin kamayib borar ekan. Chunki, bunday bolalar boshqalar xulq -atvoriga identifikatsiya qilishda qiynalishadilar, murakkab vaziyatlarda yengish strategiyalari ancha sust darajada namoyon etadilar.

Xulosa. Oida bolaning sog'lom va aqliy rivojlanishining asosiy shartlaridan biri bu, uning hissiy jihatdan etuk va ijtimoiy barqaror muhitda o'sish jarayonidir. Ta'kid joizki, oilada eng avvalo bolaning hissiy sohasi shakllanadi, shu bois ham, munosabatlarning psixologik tomoni alohida ahamiyatga egadir. Mazkur bobda bolalar va ota-onalar o'rtasidagi munosabatlar orqali, sotsial fobiya yuzaga kelishining shart-sharoitlari ko'rib chiqildi. Ya'ni, qator psixologik tadqiqotlarning metodologik qismlari keng tahlil qilinib, oiladagi muloqotning shakli va shaxslararo munosabatlar, bolaning hissiy sohasi rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Ko'pincha, ota-ona o'rtasidagi munosabatlarining buzilishi, bolaning rivojlanishiga yomon ta'sir qilar ekan, hattoki ba'zi hollarda, bu holat bolalarda nevrozlarni paydo etishi ham dalillandi. Agar bola oilasida ezgu niyat va mehr hukmron bo'lsa, bu ijobiy omil bo'lib, aksincha, ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar va shaxsida muammolari bo'lgan bolalar, sovuq begonalashuv va doimiy nizolar muhitida o'sadi. Oilada bola kattalar o'rtasidagi munosabatlarni, ularning hissiy reaksiyalarini kuzatish va unga yaqin odamlarning his-tuyg'ularining barcha turli ko'rinishlarini his qilish orqali, axloqiy va hissiy tajribaga ega bo'la boradi. Shuningdek, bola tinch muhitda xotirjam bo'ladi, u boshqa tengqurlaridan xavfsizlik va hissiy muvozanat hissi bilan ajralib turadi. Misol uchun, avtoritar tarbiya uslubida kattalar bolalarning xavfsizlik, sevgi, muloqot va atrofdagi dunyoni bilish kabi ehtiyojlarini qondirmaydi. Bunday tarbiya muhitiga ega bo'lgan bolalar, keyinchalik atrofdagi dunyoga tahdid ko'zi bilan qarashga, kuchli xavotirni boshdan kechirishga odatlanadilar.

Ota -ona munosabatlarida, sotsial fobiya paydo bo'lishini tadqiq etishning metodik ta'minoti vositalariga M.R.Leybovich, Ye.D.Shaffer, S.K.Nartova-Bochaver, M.Kun, T.V.Rumyanseva, V.V.Stolin, S.R.Pantelev, L.I.Vasserman, B.V.Lovlev, D.V.Lyusin, Rene Jil kabilar tomonidan ishlab chiqilgan psixodiagnostik usullar majmuini misol qilish mumkin. Aynan ushbu metodikalar, oiladagi ota-ona munosabatlarining bola shaxsiga salbiy ta'sirini ochib beruvchi, eng ilg'or uslubiy vositalar sifatida e'tirof etiladi.

Zamonaviy psixologiyadagi barcha bilimlarga qaramay, oilaning reproduktiv funksiyasi va uning jamiyat hayotidagi rolini o'rganishga oid juda ko'p yondashuvlar mavjud. Bizningcha, oila – bu nikoh, ota-onalik, qarindoshlik rishtalari bilan bog'langan va shu orqali aholining ko'payishi va avlodlar davomiyligini ta'minlashga asoslangan, bolalarni ijtimoiylashtirishni amalga oshiradigan, yagona oilaviy faoliyatga asoslangan insonlar jamoasidir. Demak, oilaviy ota-onalarning turli funksiyalari uyg'unlashgan maskan sanalib, unda reproduktiv, tarbiyaviy, iqtisodiy, ijtimoiy jihatlar alohida ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, oiladagi o'zaro munosabatlar, er -xotin munosabatlari, bolaga bo'lgan mehr-oqibat, oiladagi empatik munosabat, psixologik farovonlik kabilar, oilada bola shaxsi shakllanishining muhim shart-sharoitlaridan biridir.

Адабиётлар

1. Dovud T.E. Kognitiv gipnoterapiya. Sankt-Peterburg, 2003 yil.

2. Ijtimoiy fobiya / Butunjahon psixiatriya assotsiatsiyasining ijtimoiy fobiya bo'yicha muammoli guruhi / ed. S.A. Montgomeri. 1993 yil.
3. Kon I.S. O'z-o'zini izlash, shaxsiyat va uning o'zini o'zi anglash. M., 1984 yil.
4. Malkina-Pykh I.G. Stress ostida xatti-harakatlar strategiyalari // Moskva psixologik jurnali. 2005 yil. № 12.
5. Kernberg O.F. Shaxsning jiddiy buzilishlari: psixoterapiya strategiyalari. M., 2000 yil.
6. Nartova-Bochaver S.K. Shaxsning psixologik maydoni: monografiya. M., 2005 yil.
7. Perls F. Gestalt seminarlari / trans. ingliz tilidan M., 2007 yil.
8. Perls F. Ego, ochlik va tajovuz / trans. ingliz tilidan M., 2000 yil.
9. Nartova-Bochaver S.K. Farmon. Op.
10. Martsinkovskaya T.D. Psixologik chegaralar: tarix va hozirgi holat // Psixologiya olami. 2008 yil. № 3.
11. Qarang: Efremenko D.V. Yigirmanchi asrning birinchi yarmidagi Amerika sotsiologiyasi va ijtimoiy psixologiyasidagi interaksionizm: maqolalar to'plami. qator M., 2013 yil.
12. Slobodchikov V.I. Insonning ichki dunyosini shakllantirishning psixologik muammolari // Psixologiya savollari. 1986 yil. 6-son.
13. Erikson E. O'ziga xoslik: yoshlik va inqiroz / trans. ingliz tilidan M., 2006 yil.